

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Uralova Munisaxon

Toshkent davlat yuridik universitet
Xususi huquq fakulteti 1-kurs A patok 1-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot elektronlashtirishning jamiyat va davlat hayotidagi ro'lini va huquqiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va elektronlashtirish, xizmatlarni amalga oshirish usullari, uning asosiy funksiyalari va maqsadlari, tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar tahlil etilib, amaldagi qonunchilikning bu boradagi kamchiliklari va takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolarning elektron xizmatlardan foydalanishdagi huquqlari va ushbu sohada ularga yaratilgan keng ko'lamli imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan islohotlar ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar. Elektron davlat xizmatlari, huquqiy asoslar, elektron xizmatlarning samaradorligi, huquqiy xizmat ko'rsatish saytlari, milliy va xalqaro me'yorlar.

1.Kirish

XXI asr "Axborot texnologiyalari asri". Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda va jamiyatning har bir sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, jumladan xizmat ko'rsatish sohasiga ham. Tarixdan ma'lumki, davlatimiz ushbu sohada ham boshqa sohalar kabi, uzoq davrni bosib o'tdi va hozirgi darajaga yetib keldi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng fuqarolarga xizmat ko'rsatish tizimi Sovet davridagi holatga qaraganda ancha

yaxshilandi, fuqarolarga xizmat ko'rsatish uchun ko'plab turdagi davlat xizmatlari joriy etildi va yangi qonun hujjatlari qabul qilish orqali yanada mustahkamlandi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi zamona so'rovini va xalq ehtiyojini hisobga olgan holda, axborotlashtirishdan raqamlashtirishga o'tdi hamda jamiyat va davlat hayotining har bir sohasini keng qamrab oldi.

2. Elektron davlat xizmatlari haqida asosiy tushunchalar.

2.1 Elektron davlat xizmatlari tushunchasi.

Elektron davlat xizmatlari (e-xizmatlar) – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarga, davlat tashkilotlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatidir.

2.2 Elektron davlat xizmatlarining turlari.

Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari shaklida bo'lishi mumkin.

Axborot davlat xizmati – ariza beruvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati – ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko'rsatuvchi davlat organi o'rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

2.3 Elektron davlat xizmatlariga qo'yilgan talablar.

Har bir sohada uni yanada rivojlantirish va jamiyat talablariga mos bo'lishi uchun ma'lum bir talablar belgilab qo'yilgani kabi elektron davlat xizmatlariga doir talablar ham mavjud.

Axborot davlat xizmatlari to'liq va ishonchli axborotni o'z ichiga olishi kerak.

Interaktiv davlat xizmatlari:

- qonunchilik asosida va axborotni to'plash, saqlash, unga ishlov berish, uni uzatish hamda almashish bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida tashkil etilishi;
- elektron davlat xizmatlarining tasdiqlangan reglamenti asosida ko'rsatilishi;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni nazarda tutuvchi xizmatlardan ariza beruvchilarning xavfsiz foydalanishini ta'minlashi;
- so'rov yuborish va elektron davlat xizmatining natijasini olish imkoniyatini ta'minlashi;
- to'liq, ishonchli bo'lgan va ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilingan axborotni o'z ichiga olishi kerak. (1)

Asosiy qism.

3. Elektronlashtirishning hayotga tatbiq etilishi.

Elektronlashtirishning joriy etilishi va qonun hujjatlari orqali mustahkamlanishini biz faqatgina inson uchun, uning manfaatlari yo'lida amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Uning dalili sifatida barcha insonlar

istalgan vaqtda, erkin foydalanishi mumkin bo'lgan bir nechta saytlarning faoliyati yo'lga qo'yilganligini misol qilishimiz mumkin:

3.1 Elektronlashtirish maqsadida amalga oshirilgan yirik loyihalar:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)

Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz)

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz)

"Litsenziya" axborot tizimlari kompleksi (license.gov.uz).

"Yagona darcha" markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizim (birdarcha.uz) (2)

Ushbu saytlar o'z ichiga keng tarmoq yo'nalishlarini qamrab oladi va xalq manfaatlarini uchun doimiy ravishda xizmat ko'rsatadi.

3.2 Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) haqida.

Birgina my.gov.uz portalini oladigan bo'lsak, hozirgi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan o'zaro aloqasi hamda ushbu aloqalarni yanada samarali amalga oshirish uchun faoliyat ko'rsatib kelayotganligi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Yagona portal)ning o'zida ham belgilangan. Ushbu portaldan uyda o'tirgan holda ham erkin foydalanish mumkin. Buning uchun kerakli xizmatdan foydalanishga onlayn so'rovnoma yoki ariza to'ldirishning o'zi kifoya.

3.3 Yagona portalning maqsad va vazifalari

Yagona portalning maqsadlari:

ariza beruvchilarga davlat organlari tomonidan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlovchi axborot tizimlarining sifatli va uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashuvini ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish orqali ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish.

Yagona portal quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ariza beruvchilarga elektron davlat xizmatlaridan kafolatlangan va xavfsiz foydalana olishlarini ta'minlash;
- elektron davlat xizmatlari olish uchun so'rovlarni va boshqa hujjatlarni yo'llash hamda elektron davlat xizmatlari ko'rsatish natijasini qabul qilish;
- davlat organlariga elektron davlat xizmatlaridan foydalanish yuzasidan so'rovlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va natijasini ariza beruvchilarga yuborish imkoniyatini yaratish;
- to'lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn-to'lov imkoniyatlarini amalga oshirish;
- elektron davlat xizmatlari ko'rsatishning holati va borishini kuzatish;
- elektron hujjatlarni shakllantirish, saqlash va ularning haqiqiylikini tekshirish;
- kelib tushgan so'rovlar va ko'rsatilgan elektron davlat xizmatlar asosida statistik ma'lumotlarni shakllantirish. (3)

Portalning Yagona deb nomlanishining ham bir nechta sabablari mavjud:

- Elektron xizmatlardan 24/7 tartibida foydalanish mumkinligi va bunda navbatlarning mavjud emasligi;
- Davlat xizmatlari uchun to'lovlarga 10 foiz hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foizlik chegirmalarning mavjudligi;
- Soliq va jarimalar bo'yicha qarzdorlikni aniqlash va to'lash imkoniyati;
- 100ga yaqin kommunal va davlat xizmatlari uchun elektron to'lovlarni amalga oshirish;
- Barcha xujjatlarning ximoyalangan QR-kod qo'yilgan tartibda shakllanishi;
- Call-markaz 1242 qisqa raqami, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolar bilan qayta aloqaning yo'lga qo'yilganligidir.(4)

Ushbu qonun hujjatlarining muhimlik jihatida shundaki, ularda eng asosiy qoidalar va tamoyillar belgilangan. Jumladan: "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunning 6-moddasini oladigan bo'lsak, unda davlat organlari faoliyati elektron hukumat sohasidagi qonunchilikka va unda belgilangan asosiy prinsiplarga muvofiq faoliyat yuritishi, ariza beruvchilarga xizmat ko'rsatish tartibining ochiqdigi va murojaatlarning ko'rib chiqilishi holatini davlat organlarining rasmiy saytlari orqali kuzatish imkoniyatlari keltirilgan. Davlat organlari ariza beruvchiga murojaatnomaning ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi. Ushbu modda fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari

SJIF: 5.051

o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni oshirishga ya'ni, korrupsiya holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

5. Xalqaro standartlarning joriy etilishi.

Davlatimiz tomonidan xalqaro qonunchilik hujjatalari qabul qilingan shuningdek xalqaro tadqiqotlarni o'rgangan holda tajribalar orttirgan. Ularning eng asosiylariga quyidagilarni keltirish mumkin.

1.BMTning "Elektron hukumat rivojlanishi indeksi" (E-Government Development Index): Ushbu tadqiqotda BMT tomonidan har 2 yilda bir marotaba dunyo mamlakatlarining elektron hukumat tizimining rivojlanish darajasini uchta asosiy me'zon bo'yicha o'lchaydi. Indeksning ahamiyati shundaki, u davlatlar o'rtasida solishtirma beradi, hamkorlikni rivojlantirishga yordamlashadi va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston ham butunjahon miqyosida o'rnini yanada yaxshilash maqsadida qator choralarni amalga oshirmoqda.(8)

2.Yevropa Ittifoqining "eGovernment Action Plan "strategik harakat re'jasi bo'lib, raqamli boshqaruv tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. U davlat xizmatlarini raqamlashtirish; ma'muriy to'siqlarni kamaytirish; raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish; kiberxavfsizlikni ta'minlash kabi muhim maqsadlarni ko'zlaydi.(9)

3.OESDning "Digital Government Index" – bu mamlakatlarning raqamli hukumat sohasidagi yutuqlarini o'lchaydigan ko'rsatkich hisoblanadi. U 2019-yilda ishlab chiqilgan va bu indeks mamlakatlar uchun:

- Raqamli transformatsiya strategiyasini baholash
- Boshqa davlatlar tajribasini o'rganish

- Kamchilik va imkoniyatlarni aniqlash
- Rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash imkonini beradi. (10)

DGI ning muhim jihati shundaki, u davlatlarning boshqaruvida raqamli xizmat koʻrsatish tizimni nafaqat baholaydi, balki ularga boshqa davlatlarning tajribasidan foydalanish imkonini ham beradi.

6. Elektron davlat xizmatlari tizimida mavjud muammolar.

6.1 Amaliyotda yuzaga keladigan muammolar.

Oʻzbekiston respublikasida elektron davlat xizmatlarini keng miqyosda ommaga targʻib qilinishi, shuningdek ushbu yoʻnalish boʻyicha qonun hujjatalarining qabul qilinganligi va mustahkamlanganligiga qaramasdan, elektron davlat xizmatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolar yoʻq emas albatta. Ulardan asosiysi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Huquqiy asoslarning toʻliq shakllanmaganligi

Elektron davlat xizmatlari uchun zarur huquqiy normalar va qonunchilik bazasi hali toʻliq shakllanmagan. Bu qonunlar va qoidalar aniq belgilab qoʻyilmadi, bu esa xizmatlarni koʻrsatishda noaniqlik va turli tushunmovchiliklarga olib keladi.

2. Texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi

Oʻzbekistonda elektron xizmatlar taqdim etish uchun zarur texnologik infratuzilma hali toʻliq rivojlanmagan. Internet tarmogʻining qamrovi va tezligi darajasining pastligi mijozlarning ham, davlat xizmatchilarining ham faoliyatida qiyinchiliklar tugʻdirishi mumkin.

3. Bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi

Elektronlashtirilgan tizimning aholi o'rasida keng yoyilmaganligi uchun ba'zi hollarda, aholining ayrim qatlami elektron uskunalardan, zamonaviy gadgetlardan, shuningdek, elektron xizmatlardan foydalanish bo'yicha bilim yoki ko'nikmalari yetarli emasligi sababli, qiyinchiliklarga duch kelishi, imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi mumkin.

4. Maxfiylik va xavfsizlik muammolari

Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi eng muhim masalalardan biri hisoblanib, hozirda global muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Har bir foydalanuvchi, o'zining shaxsiy ma'lumotlari himoyasining kafolatlariga erishish va shu orqali konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishi mumkin.

6.2 Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning qonunchilikda ta'kidlanishi.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tizimli muammolar "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan MILLIY STRATEGIYASI" ham belgilab qo'yilgan.

- mavjud davlat xizmatlarining katta qismi hamon elektron shaklda ko'rsatilmagan an'anaviy shaklda aholiga taqdim etib kelinmoqda;
- tartib-taomillari o'zaro o'xshash bo'lgan davlat xizmatlarini ko'rsatish asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlari lozim

darajada amaliyotga tatbiq etilmaganligi qonunchilik hujjatlarining soni sun'iy oshib ketishiga sabab bo'lmoqda;

- davlat xizmatlari yagona reyestrda takrorlanuvchi, bir xizmatning tarkibiy qismi bo'lgan bir nechta xizmatlar, o'z ahamiyatini yo'qotgan davlat xizmatlari saqlanib qolmoqda;
- vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatishda to'lovlar ularning ushbu xizmatni ko'rsatish uchun sarf qiladigan xarajatlaridan ortiqcha miqdorlarda undirilmoqda;
- ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli organlar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartiblari muntazam ravishda buzilishi sabablari bartaraf qilinmasdan qolmoqda;
- vakolatli idoralar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillari buzilganda ularning qonunga xilof xatti-harakatlari va qarorlari ustidan sudgacha shikoyat qilishning mexanizmlari yo'lga qo'yilmaganligi sababli jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash uzoq vaqtni talab qilmoqda;
- bir qator vakolatli idoralarda davlat xizmatlarini ko'rsatishga aniq mas'ul bo'lgan xodimlar ajratilmaganligi yoki belgilanmaganligi ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- shaxsni identifikatsiyalashning muqobil usullari joriy etilmaganligi sababli fuqarolar tomonidan davlat xizmatlaridan foydalanishda identifikatsiya jarayoni asosan elektron raqamli imzoga bog'lanib qolmoqda;

- davlat xizmatlarining mobil ilovasi talab yuqori bo'lgan xizmatlarni to'liq qamrab olmasligi, bu ilovadan xizmatning oxiriga qadar foydalanish imkoniyati mavjud emasligi sababli elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'lami pastligicha qolmoqda;
- davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi organlar tomonidan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga zarur infratuzilma yaratilmaganligi natijasida ariza beruvchilar ijtimoiy sohadagi xizmatlardan foydalanishda noqulayliklarga duch kelmoqda; (11)

2. Qiyosiy tahlil va muhokama.

O'zbekistonda elektron davlat xizmatlari sohasida afzalliklar bilan bir qatorda kamchiliklarni ham uchratishimiz mumkin. Ushbu muammolarni xorijiy adabiyotlar va chet el davlatlari tajribasi misolida ko'rib chiqamiz.

Elektron davlat xizmatlarini tashkil etishning huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalar ko'plab davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu sohada xorijiy davlatlar tajribasi turli yondashuvlarni ko'rsatadi shuningdek, ushbu yondashuvlardan kelib chiqib elektron davlat xizmatlari sohasida qator yangiliklar olib kirish mumkin: **Estoniya** elektron davlat xizmatlari sohasida eng ilg'or davlatlardan biri hisoblanib, bu davlat "bir martalik ma'lumot talab qilish" va X-Road tizimini joriy etish kabi asosiy yondashuvlarni yoqlaydi. Bunda fuqarolar davlat idoralariga murojaat qilganda faqat bir marotabagina ma'lumotlarini taqdim etadi va davlat idoralarining bazalarida fuqaro ma'lumotlari o'zaro almashinadi. Bu yo'l orqali fuqaro o'zining shaxsiy ma'lumotlarini boshqalardan himoya qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu mamlakatda X-Road tizimi joriy etilgan bo'lib, bu

idoralar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvida tezlik va xavfsizlikni ta'minlaydi.(12) Davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan **Singapur** davlatini ko'radigan bo'lsak, ushbu davlat ham avvalo MyInfo platformasi orqali, fuqarolar uchun shaxsiy ma'lumotlarini bir martalik kiritish tizimini joriy etgan bo'lib, boshqa barcha davlat idoralari ham shu ma'lumotdan foydalanadi. (13) Bu fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonini osonlashtiradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, Singapurda kiberxavfsizlik va maxfiylikka jiddiy yondashiladi va har bir fuqaroning ma'lumotlari maxsus kodlash tizimi orqali himoyalaniadi. Shuningdek, jahonning Buyuk Britaniya, AQSH, Daniya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlari fuqarolarga elektron xizmat ko'rsatuvchi tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligi davlat xizmatlaridan foydalanish tizimida alohida belgilab qo'yilganligi, ushbu tizimning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu tizim to'liq rivojlanmagan. Lekin biz ham jahon tajribasini o'rgangan holda, tizimdagi xavflarni bartaraf etish, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, yangi dasturlar ishlab chiqsak va ularni qonunchiligimizga tatbiq etsak ulkan natijaga erishamiz.

8. Xulosa va taklif.

Hozirgi kunda bir qator muammolarga duch kelinayotgan bo'lsada, ushbu soha jamiyatimizga yaqinda kirib kelganligiga qaramasdan anchagina rivojlanishga va sezilarli siljishlarga erishildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi xalq uchun, uning manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "xalq

davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan prinsipning yaqqol misoli deb aytish mumkin. O‘zbekistonda «elektron hukumat» ni rivojlantirishda erishilayotgan muvaffaqiyatlar axborot jamiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat islohotlarining samaradorligidan dalolat beradi, – deydi BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining «elektron hukumat» bo‘yicha mintaqalararo maslahatchisi **Richard Kerbi**. (14) Albatta, bunday e’tirof ham davlatimizda elektronlashtirish sohasida islohotlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda elektron davlat xizmatlari tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun bir nechta takliflar kiritish mumkin. Ushbu tizim davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni soddalashtiradi, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi va korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.

1. Davlat organlari va elektron xizmatlardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalarni soddalashtirish uchun vakolatli organlar tomonidan keng ko‘lamli targ‘ibot va tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Masalan, fuqaro my.gov.uz sayti bilan tanish bo‘lsa va uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olsa, vaqt va xarajat sarfini kamaytirishga, xizmat ko‘rsatish jarayonini yanada soddalashtirishga erishadi.

2. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga erishish ham muhim masala hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilaman.

1. Shaxsiy ma'lumotlar shifrlash: Foydalanuvchilar ma'lumotlarini saqlash va almashish jarayonida shifrlash texnologiyalaridan foydalanish, bu ma'lumotlarning maxfiylikni oshiradi.

2. Autentifikatsiya jarayonlarini kuchaytirish: Foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish jarayonini ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) kabi usullar bilan kuchaytirish. Bu foydalanuvchini aniqlash va himoyalashni takomillashtirishga yordam beradi.

3. Tizimning doimiy yangilanishi: Davlat xizmatlari tizimlarining dasturiy ta'minotini doimiy ravishda yangilab turish, shu jumladan, xavfsizlik yamoqlarini o'z vaqtida qo'llash.

4. Ta'lim va o'qitish: Davlat xodimlari va foydalanuvchilarga kibermuhofaza bo'yicha treninglar o'tkazish, xavfsizlik qoidalari va eng yaxshi amaliyotlarni o'rgatish.

5. Texnologik yangiliklardan foydalanish: Kibermuhofaza uchun yangi texnologiyalarni, masalan, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish usullaridan foydalanish.

6. Doimiy tekshiruvlar o'tkazish: Xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan har qanday yangi tadbirlarning samaradorligini baholash uchun doimiy ravishda tekshiruvlar o'tkazish.

Ushbu choralar elektron davlat xizmatlarining xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyatga ega shuningdek, davlatning xizmat ko'rsatish yo'nalishida xalqning ishonchini qozonishga yordam beradi. (15)

Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari tarzida bo'lishi mumkin.

Axborot davlat xizmati ariza beruvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko'rsatuvchi davlat organi o'rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Tavsiya etiladigan tahrir.

Elektron davlat xizmatlarining **axborot, interaktiv va tranzaksion** shakllarda bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Axborot davlat xizmati ariza beruvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko'rsatuvchi davlat organi o'rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo'li bilan ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Tranzaksion davlat xizmatlari – korporativ moliya faoliyatining bir turi hisoblanib, tadbirkorlik bitimlarini tuzishda professional xizmatlar firmasi tomonidan taqdim etiladigan uchinchi tomon xizmati. (16)

Jamiyat va davlat hayotida tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda va kundan kunga davlatning ravnaq topishida muhim ro'l o'ynamoqda. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirish uchun ko'plab islohot dasturlari qabul qilinyapti. Qonunda tranzaksion davlat xizmatlari ko'rsatilishining belgilab qo'yilishi ham tadbirkorlarga keng imkoniyat eshigini ochadi. Tranzaksion xizmatlarning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga moliyaviy operatsiyalar yoki ma'lum jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatini berish bo'lib, asosan shartnomalar tuzish, onlayn litsenziyalar va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish, pul mablag'larini o'tkazish jarayonlarida yuzaga keladi.

Mana shu kabi normalarning qonunchilikka kiritilishi, elektron davlat xizmatlari sohasining hech qanday qiyinchiliklarsiz ishlashiga va davlatimizning raqamlashtirish siyosatida muhim o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Elektron hukumat to'g'risida". (11.06.2016).
2. <https://daqn.uz/ozbekistonda-elektron-hukumatni-joriy-etish-va-rivojlantirish-holati/>.
3. "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal to'g'risida" Nizom. 25.09.2017.
4. <https://my.gov.uz/oz?id=13>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori “Elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. (13.06.2016).
6. O‘zbekiston respublikasining qonuni “Elektron hukumat to‘g‘risida”. (11.06.2016).
7. “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.
8. BMTning "Elektron hukumat rivojlanishi indeksi" (E-Government Development Index).
9. Yevropa Ittifoqining “eGovernment Action Plan” (ResearchGate).
10. OESDning “Digital Government Index”(2019).
11. Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYASI.
12. <https://privacyinternational.org/case-study/4737/id-systems-analysed-e-estonia>.
13. <https://sumsub.com/blog/singapore-my-info-singpass/>.
14. <https://uza.uz/oz/posts/axborot-kommunikatsiya-sohasi-jadal-rivojlanmoqda-18-09-2015>.
15. “Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari” A.Abdiraimov (2022) .

16. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonning-elektron-hukumatni-rivojlantirish-indeksidagi-o-rnini-xorijiy-tajribalar-asosida-yaxshilash-istiqbollari/viewer>.